

Shavkat Mirziyoyev zamonaviy qurilish materiallari klasteri faoliyati bilan tanishdi



Prezident Shavkat Mirziyoyev Yuqori Chirchiq tumanidagi “Yevro Global Invest” mas’uliyati cheklangan jamiyati faoliyati bilan tanishdi.

Bugun yurtimizda qurilish ko’lami keng. Shu bois yangicha dizayndagi temir-beton materiallariga talab yuqori.


O’tgan yili dekabrda ish boshlagan “Yevro Global Invest” korxonasi yirik yig’ma temir-beton panellari tayyorlashga ixtisoslashgan. Mazkur loyihaning umumiy qiymati 40 million yevro. 7 gektarlik ishlab chiqarish maydoniga Italiya, Germaniya va Avstriyadan zamonaviy liniyalar keltirib o’rnatilgan.

Korxonah mahsulotlari jahon standartlariga mos, zilzilabardoshligi yuqori. Mazkur qurilish materiallari ishlatilgan uylar tannarxi boshqalarga nisbatan 30 foiz arzon bo’ladi. Mahsulotlar rangli qilib tayyorlanishi ham mumkin.









Manba